

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”

KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.45:658(575.1)

MARDONOVA MALIKA MO‘MINOVNA

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIYOTGA JALB QILINAYOTGAN
XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLARDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
I.f.n., dots. A..Ismailov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida himoyadan o'tgan.

52 - sonli bayonnoma « 3 » 05 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dos. A.Ismailov

[imzo]
imzo

_____ sana

Magistr: M.M. Mardonova

[imzo]
imzo

_____ sana

Dicceptasiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "16" 05
№ 1/04 raqami bilan po'yxatga olingan.

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida

mudiri, dos. I.Xotamov [imzo]

"3" may 2023 yil

Himoya 2023 yil "17" 05 soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlardan foydalanish samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Unda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatini intellektual platforma asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan, "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyati misolida intellektual platforma asosida samarali rivojlantirishning zamonaviy holati tahlil qilingan va "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini intellektual platforma asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari keltirilgan hamda ularning istiqbollari belgilangan.

Dissertatsiya ishida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayoniga intellektual platforma texnologiyalarini qo'llash orqali maxsulotlar ishlab chiqarishni dasturlash va avtomatlashtirish jarayonini tashkil etishda bir qancha yangi xizmat turlari yuzaga kelishi asoslangan. Tadqiqotlar natijasida sanoat korxonasini ishlab chiqarish jarayonida va bozorda mavjud xizmatlarga nisbatan ancha takomillashtirilgan raqamli ishlab chiqarish jarayonlari va intellektual platforma asosida samarali rivojlantirish tendensiyalari asoslangan.

Aniqlangan muammolarni hal qilishda muallif tomonidan "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyatida intellektual platforma texnologiyalari asosida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish va mahsulot turini diversifikatsiyalash uchun uzoq muddatli istiqbolda ustuvor vazifalar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga ishda korxonaning faoliyatiga intellektual platforma texnologiyalarini joriy etishning ta'sirini vaqt, unga kiritilgan investitsiya, boshqaruv va boshqa xarajatlarni kamaytirish kabi omillar asosida baholash usuli takomillashtirilgan bo'lib, u ko'p jihatdan, intellektuallashtirilgan sanoat biznesini rivojlanish jarayonlarini o'rganishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, sanoat korxonalarini, intellektual platforma, samarali rivojlanish, integratsiya, vertikal va gorizontal integratsiya, innovatsiya, dispersion tahlil.*

Abstract

In this master's dissertation, a report on the research conducted on the effective development of industrial enterprises based on an intellectual platform is presented. In it, the scientific and theoretical foundations of the development of the activities of industrial enterprises based on an intellectual platform were studied in the conditions of the formation of the digital economy, the modern state of effective development based on an intellectual platform was analyzed on the example of the joint-stock company "Ohangaronsement" and the priority directions of the development of the activities of the joint-stock company "Ohangaronsement" based on the intellectual platform were analyzed. are presented and their prospects are defined.

The dissertation work is based on the emergence of several new types of services in the organization of the process of programming and automation of product production by applying intelligent platform technologies to the production process of industrial enterprises. As a result of the research, the trends of effective development of the industrial enterprise based on the digital production processes and intelligent platform, which are much improved compared to the existing services in the market, are based.

In order to solve the identified problems, the author developed scientifically based proposals for the priority tasks in the long-term perspective for the modernization of the production process and diversification of the product type based on the technologies of the intellectual platform in the joint-stock company "Ohangaronsement". At the same time, the work improved the method of evaluating the impact of the introduction of intelligent platform technologies on the enterprise's activities based on factors such as time, investment, management and other cost reduction, which in many ways is the basis for studying the development processes of intellectualized industrial business. creates.

Key words: digital economy, industrial enterprises, intellectual platform, effective development, integration, vertical and horizontal integration, innovation, dispersion analysis.

MUNDARIJA

KIRISH	7
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	13
1.1. Iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	13
1.2. Iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarning asosiy jihatlari.....	26
II BOB. METODOLOGIYA	36
2.1. Globallashtirish sharoitida iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlardan foydalanishni samarali tashkil etishning xorij tajribasi.....	36
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	43
3.1. O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish yo'llari va shart-sharoitlari.....	43
3.2. "Ohangaronsement" AJda intellektual platformani qo'llash faoliyatini iqtisodiy baholash	54
3.3. "Ohangaronsement" AJ faoliyatini intellektual platformani qo'llash asosida samarali rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	65
XULOSA	74
Foydalanilgan adabiyotlar	77

I.Kirish

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bugun jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, davlatlar iqtisodiy o'sishining manbai sifatida intellektual texnologiyalar, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish hamda ulardan samarali foydalanish hisoblanmoqda. Bu boradagi islohotlarni Hindiston 40-50 yil avval boshlagan va 2019 yilda bu sohadan olingan daromad 159 mlrd. dollarini tashkil etgan¹. Ushbu sohaga Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, Finlyandiya kabi mamlakatlar tajribasida boshqalarga nisbatan 2 marta ko'p sarmoya sarflanib, asosan, sanoatda zarur qurilmalar, dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mahsulotlari va intellektual xizmatlarini ishlab chiqarish va ularni tarmoqlarga samarali qo'llashga yo'naltirilgan. Jahon bankining 2020 yildagi tadqiqotlariga muvofiq, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyati ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga axborot va intellektual platforma texnologiyalarini qo'llash, internet-foydalanuvchilar sonini (2017 yilga nisbatan) 15 %ga oshirish orqali mamlakat YAIMni 3-3,9%, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni esa 7,2 % oshirishga erishgan².

YAngi O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida tarmoqlar va sohalarni kontent va intellektual platformalarni qo'llash asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish va infratuzilmasini yaratish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2019 yilda respublikada raqamlashtirish sohasidagi investitsiyalar 465,0 mln. dollar va ishlab chiqarilgan dasturiy mahsulotlar 5857 tani tashkil qilgan. 2019 yilda respublikamiz YAIMning 3,2%ga yaqini raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelgan. Iqtisodiyotimizning mazkur tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganiga qaramay, mamlakatimiz bu borada dastlabki bosqichda turgani, intellektual texnologiyalarining yangi turlarini rivojlanishi, ularni iqtisodiyotning turli ishlab chiqarish tarmoqlariga joriy etilishi zarurati, sanoat tarmoqlarida ulardan etarlicha

¹ <http://www.nassecom.in/indian-itbpo-industry> - Hindistonning AKT bo'yicha agentligi veb-sayti.

² Minges M. Exploring the relationship between broadband and economic growth. WDR. 2015.